


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



MENDELEEV DMITRIY IVANOVICH  
(1834-1907)

2022  
FEVRAL  
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
2-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-2**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## “Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

<b>1. Shrazaddinova Amina Aleuatdinovna</b>	
GLOBALLASHUVNING TIL VA MADANIYATGA TA'SIRI .....	7
<b>2. Kdirbayev Qonisbay Muratbay o'g'li</b>	
GLOBALLASHUVNING MADANIYAT, MA'NAVIYAT VA QADRIYATLAR TIZIMIGA TASIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	9
<b>3. X.S.Ashurova</b>	
MA'RIFATPARVARLIK KONSYEPSIYALARI .....	11
<b>4. Баракаева Гавхар Лукмоновна</b>	
ШАХСНИ ЭСТЕТИК СОҒЛОМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.....	13



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### GLOBALLASHUVNING TIL VA MADANIYATGA TA’SIRI

Shrazaddinova Amina Aleuatdinovna

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Falsafa ixtisosligi 2-kurs magistranti

Telefon: +998(91)3789566

kkdyrbayev@bk.ru

**Annotatsiya:** Bu maqolada globallashuv jarayoni natijalarining madaniyat va tilga ta’siri, globallashuv sharoitida til va madaniyatning o’zaro ta’sirining falsafiy va umumiy nazariy muammolari tahlil qilindi.

**Kalit so’zlar:** globallashuv, til, madaniyat, global madaniyat, milliy madaniyat, ja’miyat, ommaviy axborot vositalari.

Bizga ma’lumki XX asr oxiri va XXI asr boshlari dunyoda globallashuvning keskin kuchaygan jarayoni bilan belgilandi. Hozirgi vaqtida globallashuv jamiyat rivojlanishining asosiy jarayonlaridan biri bo’lib, inson hayotining barcha sohalarini qamrab olishi bilan birga madaniyat va tillarga ha’m o’z ta’sirini ko’rsatmaqda. Ko’plab olimlar globallashuv jarayonining ob’ektivligini tan olib, uning ijobjiy tomonlari haqida fikr bildiradi. Lekin ba’rhamizga ayonki, globallashuv jarayoni natijalarining madaniyat va tilga ta’siri bundan mustosno. Bu ja’miyatning ma’naviy hayoti muammosi bilan bog’liq, birinchi navbatda ona tillarini, zamonaviy xalqlarning milliy va madaniy o’ziga xosligini saqlab qolish bilan bog’liq.

Shu o’rinda frantsuz tadqiqotchisi B.Bandining “globallashuv milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni”<sup>1</sup> degan ta’rifini keltirib o’tishimiz mu’mkin.

Chunki, globallashuv jarayonida til milliy madaniyat faktorining asosiy atributi sifatida maydonga chiqadi va global madaniyat faktori o’rtaga tashlayotgan yoki taqozo qilayotgan global til yo’liga qo’ylgan ilk to’siqqa aylanadi.<sup>2</sup>

Globallashuvning milliy tilga ta’siri masalasi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv o’zining ijobjiy va salbiy tomonlariga ega bo’lgan murakkab jarayon sifatida, barcha sohalarda bo’lgani kabi, til sohasida ham chuqur o’ylab ko’rilgan yondashuvni talab qiladi.

Ulug’ ma’rifatparvarimiz Abdulla Avloniyning “Hifzi lison”, ya’ni “tilni saqlash” nomli maqolasi bor. Bu o’rinda, tabiiyki, Avloniy birinchi navbatda ona tili – milliy tilni saqlash muammosini nazarda tutgan. U bu haqda shunday yozadi: “Hifzi lison deb har bir millat o’z ona tili va adabiyotini saqlamagini aytilar. Har bir millatning dunyoda borlig’ini ko’rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdur”.<sup>3</sup>

Globallashuv va unga aloqador jarayonlar o’sib borayotgan davrda, tub xalqlarning o’ziga xos madaniyatlari va tillarini asrab -avaylash hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biridir.

Sababi tilning yo’q bo’lib ketishi bilan xalq ham yo’qoladi. Xalq bo’lmasa unga tegishli madaniyat ha’m yo’q bo’lib ketishi ta’biyyiy jarayon.

Tillarning yo’qolishi shuni anglatadiki, madaniyatlar, dunyoni ko’rishning o’ziga xos usullari, ular bilan birga yo’q bo’lib ketadi, bundan tashqari, bu milliy o’ziga xoslikni yo’qotishdir. Tillar ular bilan nafaqat individual so’zlar va madaniyatlarning o’ziga xos xususiyatlarini, balki insoniyat to’plagan bilimlarning muhim qismini ham unutib qo’yadi.

Shuni ha’m ta’kidlab o’tishimiz joizki, globallashuv davrida chet tillarini o’rganish zarurligi

<sup>1</sup> А.К.Кодиров. А.С.Очилдиев. «Глобаллашув ва миллат» Тошкент 2008. 10-б.

<sup>2</sup> Ja’far XOLMO’MINOV GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY TIL FAKTORI-2017

<sup>3</sup> Ja’far XOLMO’MINOV GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY TIL FAKTORI-2017



haqida tushuncha paydo bo’ldi. Shu bilan birga, globallashuv va global tilga bostirib kirish istiqboli barcha xalqlarni uyg’onishga, milliy o’ziga xosligini anglashga, o’z madaniyati va ona tilini chuqurroq qadrlashga chaqiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ona tili va milliy madaniyatlarni asrab -avaylash va rivojlantirish muammolari ko’p qirrali.

Bizning fikrimizcha, eng muhimlari:

1. Globallashuv sharoitida til va madaniyatning o’zaro ta’sirining falsafiy va umumiy nazariy muammolari.

2. Globallashuv davrida milliy lingvistik madaniyat.

3. Ona tili va milliy madaniyat, shuningdek globallashuv sharoitida davlat siyosati.

4. Globallashuv sharoitida milliy madaniyat va ommaviy axborot vositalari.

5. Globallashuv va milliy ta’lim, hozirgi bosqichda milliy tillarni o’qitish muammosi.

6. Globallashuv jarayonida yoshlar madaniyati.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quidagi fikrlari bilan yakunlamoqchimiz: “Sayyoramiz ertangi kuni, farvonligi, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”<sup>2</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi

2. А.Қ.Қодиров. А.С.Очилдиев. «Глобаллашув ва миллат» Тошкент 2008. 10-б.

3. Ja’far Xolmo’mnov. Globallasahuv jarayonida milliy til faktori. 2017.

4. Қдырбаев Қ.М. «Форум молодых ученых» Выпуск № 10(62) (октябрь, 2021). «РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА АЖИНИЯЗА В РАЗВИТИИ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ КАРАКАЛПАКСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ XIX ВЕКА» С-60.

5. <https://m-eng.ru/uz/drain-system/mezhunarodnyi-zhurnal-prikladnyh-i-fundamentalnyh-issledovanii-o.html>

<sup>1</sup> [https://m-eng.ru/uz/drain-system/mezhnarodnyi-zhurnal-prikladnyh-i-fundamentalnyh-issledovanii-o.html](https://m-eng.ru/uz/drain-system/mezhunarodnyi-zhurnal-prikladnyh-i-fundamentalnyh-issledovanii-o.html)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan



## GLOBALLASHUVNING MADANIYAT, MA’NAVIYAT VA QADRIYATLAR TIZIMIGA TASIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Kdirbayev Qonisbay Muratbay o’g’li

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti MTU  
09.00.04-ijtimoiy falsafa ixtisosligi tayanch doktoranti  
Telefon: +998(91)3789566  
kkdyrbayev@bk.ru

**Annotatsiya:** Bu maqolada Globallashuvning inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davrida muhim bo’lgan madaniyat, ma’naviyat va qadriyatlar tizimiga tasiri ijtimoiy-falsafiy jihattan tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** Global, globallashuv, qadriyat, madaniyat, manaviyat, mafkura madaniy globallashuv, axloq, ma’rifat.

Bugungi kunda “globallashuv” so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir voqelikni o‘zida mujassam etadi.

Globallashuv so‘zining lug‘aviy ma’nosi global so’zidan kelib chiqqan bo‘lib, (frants. Global – eng umumiy) – o’z ko’lami, qamrovi jixatidan xilma-xil va butun er shariga, insoniyatga daxldor narsalarni nazarda tutadi.

Faylasuf olim A.Ochildevning (2009) «Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar» nomli asarida ham bu tushinchaga o‘ziga xos yondashishni ko’rish mu’mkin. Olimning ta’kidlashicha, «...eng umuniy manoda, globallashuv, bir tomonidan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va Er yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomonidan, ularning insoniyat taqdiriga dahldor ekanini anglatadi» degan fikrni ilgari suradi.

Globallashuvning mamlakatlarning madaniyati, ma’naviyati va qadriyatiga o’tkazishi mumkin bo’lgan ijobiy va salbiy ta’siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so‘zlari orqali yaxshi ifodalash mumkin: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o’tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqtib yuborishini ham istamayman».

Bunnan madaniyatimiz, ma’naviyatimiz va qadriyatimiz bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta’minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.

Albatta, bunday vaziyatda mustaqilligimizni mustahkamlash, uning barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta’minalashda milliy qadriyatlarimizni, madaniyatimizni, shuningdek ma’naviyatimizni asrash har birimizning yuksak burchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev globallashuv sharoitida ma’naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan: “Bugungi kunda yonatromizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosи, noqonuniy migratsiya, “omnaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi”, deb alohida ta’kidlaydi.

Shuni ha’m aloqida ta’kidlab o’tish zarur. Buningi kunda madaniy globallashuv tushinchasi ham keng qo’llanilmoqta. Madaniy globallashuvni tushunish uchun globallashuv va madaniyat o’rtasidagi bog’liqlikni tushunish kerak. Bir tomonidan, globallashuv - bu har bir mintaqaga mos keladigan iqtisodiyot, texnologiya, siyosat, madaniyat, ijtimoiy xususiyatlar va mafkuraviy fikrlar o’zaro bog’liq bo’lgan dinamik jarayon. Bu ma’lum bir jamiyatga xos bo’lgan shakl va iboralar birikmasining natijasidir. Unda jamiyatga mansub odamlarda ustun bo’lgan e’tiqodlar, qoidalar, marosimlar va odatiy odatlar singdirilgan. Va u o’z navbatida ma’lum bir davrda ma’lum bir aholining turmush tarzini, qadriyatlar tizimini, e’tiqodlarini, huquqlari va an’analarini o’z ichiga oladi.

Madaniy globallashuv esa bu turli jamoalarga tegishli bo’lgan turli xil urf-odatlarni o’zida



birlashtirishdir. Madaniy globallashuv bir xillikka erishishga intilayotgan turli xil madaniy o’ziga xosliklarni birlashtirishni va uning asosiy mazmuni o’zining madaniy o’ziga xosligi bo’lishini anglatadi.

Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlardan xalqni, xususan o’sib kelayotgan yoshlarni asrash, ularning qalbiga ezzulik g’oyalarini singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bug‘inlarida ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog‘liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o‘z fikrlarini bildirar ekan, “Yangi tahdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g’oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma’naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir”, - deb ta’kidlaydilar.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mu’mkin, hu’rmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Mirziyoev Sh..M.Jamiatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarmizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O’zbekiston. 2017. – 320 b.
2. Киёмиддин Назаров ФАЛСАФА ҚОМУСИЙ ЛУФАТ Т- 2004 92-б.
3. Ochildev A. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar. T.: Muh’arrir, 2009. B. 64.
4. Yakubovich,A.H. The emergence of the Syrian crisis and the impact of the exsternal forces on it. Bulletin Social Economic and Humanitarian Research, 2019 (4(6))
5. Toshbekova.M «GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNI BARTARAF ETISH OMILLARI» Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences 2021 March 186 b.



MA’RIFATPARVARLIK KONSYEPSIYALARI  
(jadidlar faoliyati)

SamDCHTI, X.S.Ashurova

**Annotetsiya:** Bu maqolada ma’rifatparvarlik va jadidchilik targ‘ibotining o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtani nazardan tahlil qilingan. Jamiat taraqqiyoti va rivojlanish bosqichining asosiy poydevori ta’lim va tarbiyaning asosi ma’rifat bilan millat va davlatning o‘ziga xos strukturasi shakllanadi va tarix saxnasida bir millatularoq yashashi uchun ustun vazifasini o‘tashi yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** millat, davlat, ta’lim, ma’rifat, jadidlar, g‘oyalar, ma’naviyat, milliy g‘oya, siyosat, iqtisod.

Ma’lumki, XX asrning boshida Turkiston o‘lkasidagi milliy uyg‘onish jarayoni jadid ziylolarining faoliyati bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Aynan, jadidlarning nuqtai nazaricha har bir millatning qadimiy madaniyatini o‘rganish, iqtisodiyoti va maishiy turmush tarzini takomillashtirish uchun uni avvalo ma’rifatli, ilmli qilish o‘z davrining asosiy talabi edi. Turkiston jadidchiligi va ma’rifparvarligi jamiyatning ma’naviy takomilini taqazo etdi. Ilm va hunar orqali mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy va xalqni ruhiy baqquvat qilish, mamlakatni o‘zgalar ta’siriga tushib qolishdan asraydi deb ta’kidlaydi. Shuning uchun ham, har bir millatning taraqqiysi ilm - sanoat-tijorat-ziroatdan boshlanadi, degan fikrni o‘zbek jadidlarining konseptual shioriga aylanib bordi.

Jadidchilikning jamiyatni yangilash sohasidagi nazariali Turkistonda kolonial siyosat tufayli vujudga kelgan inqirozdan qo‘tilishning asosiy birgina yo‘li Yevropa tajribasidan oqilona foydalanish va madaniy islohotlarni amalga oshirish, deb hisoblaydi. Buning uchun ular avvalambor progress nazarイヤasining islam bilan ligimitatsiyasi, jamiyat rivojlanishi va shaxs kamoloti masalasiga jiddiy e’tibor berdilar. Bu g‘oyalar adabiyot va publitsistik ijodiyotda o‘z aksini topdi. Jadidlarning konsepsiyasida bag‘rikenglik muhim ahamiyat kasb etgan edi. Bugungi kunlar jadidlar asarlarini o‘rganishimiz davomida ularning biror-bir din yoki millatning kamsitganligini, islam dini va musulmonlarning esa ko‘klarga ko‘tarib maqtaganlarining ham guvohi bo‘lmaymiz. Aksincha, ular islam diniga ob’ektiv baho berishga, uning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini tug‘ri baholashga harakat qilganlarini ko‘ramiz. Albatta, ilg‘ol jadidlar islam dini to‘g‘risida ijobjiy fikr bildirilganda bevosita Yevropa olimlarining ham asarlariga va inonchli manbalar sifatida tayangan edi. Jadidlar Turkiston musulmon jamiyatida milliy mintalitetni ilmiy va texnik inqilob g‘oyalari bilan muvofiqlashtirishga intilib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini kuzlagan xolda bag‘rikenglikka chaqirdilar. Shu bilan birlgilikda ular Chor hukumatining mahalliy aholi manfaatlarini nazar-pisand qilmaydigan, madaniyat va ta’lim tizimining har tomonlama rivojlanishiga tug‘anoq bo‘ladigan siyosatini nazardan soqit qilmasdan Yevropa sivilizatsiyasiga umuminsoniy qadriyatlar tamoyili asosida qarash lozimligini uqtirdilar. Jadidlarning bag‘rikenglik g‘oyalarining shakllanishiga Yevropa va Rossiyada keng targ‘ib qilingan fikrlar ta’sir ko‘rsatdi. Buni amalga oshirish uchun boshqa dinlarga nisbatan bag‘rikenglikni shakllantirish kerak edi albatta, chunki hamma yangiliklar boshqa dinlarning vakillari, oddiy xalq tili bilan aytganda, «kofirlar» tomonidan kiritilgan, deb hisoblanar edi.

Jadidlar bag‘rikenglik g‘oyalarini real aks ettirdilar, chunki ular chuqur diniy ma’lumotga ega bo‘lib, dunyoqarashlari keng edi. Ularning ko‘zga ko‘ringan vakillari nafaqat madrasa ta’limini olgan, balki diniy mansabga ham ega edilar. Misol uchun, Isoqxon ibrat boshqa jadidlarga o‘xshab musulmon bo‘Imaganlarga nisbatan bo‘lgan munosabatda hakmkorlik va birlik masalasini ko‘tardi, bag‘rikenglik g‘oyalarini asoslash maqsadida Qur’on va hadislarga murojaat qildi. Uning bag‘rikenglikni targ‘ib qilishi insонning bir Odam otodan va Momoxavodan kelib chiqishi to‘g‘risidagi mashhur rivoyatga asoslanadi.

Turkiston o‘lkasida yuzberayotgan voqealar tufayli xalq ommasining ruxi tushib ketayotganligini, ziylolarning esa ma’naviy tanazzul tomon yuz o‘girganligini ko‘rgan jadidlar bu holatning ijtimoiy ildizini aniqlashga harakat qildilar. Shuning uchun ular ta’lim tizimini ta’momila isloh qilish zarur, deb hisoblaydilar. Ta’lim tizimining islohoti konfessional maktab va madrasada ta’lim va tarbiya jarayonini tubdan qayta qo‘rishni nazarda tutdi. Bu jiddiy, mashaqqatli masalani hal qilish uchun bir tomonidan Chor Rossiyaning ta’lim to‘g‘risidagi siyosatiga rahna solish, boshqa tomonidan esa mullalarning qarshiligini yengish zarur edi. Chunki rus tuzem maktablariga katnash,



ularning nazarida hatarli edi, sababi Ilminskiy, Osttromov kabi misseonerlarning bu sohada olib borgan siyosatlarining negizi nafaqat mahalliy yoshlarni ruslashtiri, balki nasroniyashtirishdan iborat bo‘lganligi ayon edi. Umuman olganda Turkistondagi ta’lim tizimida asosiy darslarni ona tilida olib borish maktab va madrasalarni isloh qilishning muhim omillaridan biri ekanligini e’tirof etgan jadidlar, savod chiqarayotgan bolalar avval arabcha o‘qishni o‘rganib oglani bilan ilmnинг boshqa sohalari to‘g‘risida hech qanday tushunchaga ega emasligini, mukammal namoz ibodatini bajarishni ham, xat yozish malakasini ham tuzukroq o‘rgana olmasligini o‘zlarining targ‘ibotlarida doimiy ravishda ta’kidlab bordilar va ta’lim berishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqib keng targ‘ib etib bordilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ashurova Kh.S. Features of sosio-political ideas of Samarkand jadids/ American jurnal of research. №7-8, July-August 2018. Michigan, USA, - P.51-56 (№23; SJIF: 5.637).
2. Ashurova Kh.S The role of the spiritual heritage of the Samarkand jadids in the formation of the youth’s vital position./ Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) ISSN: 2278-4853. Vol 8, Issue 5, May 2019. India, - P. 322-327 (№23; SJIF: 6.053).
3. Ашуррова Х.С. Самарқанд жадидлари маънавий меросининг ёшлар ҳаётий позициясини шаклланишидаги ўрни. Falsafa va hayot xalqaro jurnal №SI (2020) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-SI> 1-сон 2021 йил. 15-22 бетлар.



## ШАХСНИ ЭСТЕТИК СОҒЛОМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Баракаева Гавхар Лукмоновна  
СамДУ тадқиқотчиси  
barakaevagavhar@rambler.ru  
902241818

**АННОТАЦИЯ :** Соғломлаштириш жараёни тизимли ва узвий фаолиятни назарда тутувчи назарий ва амалий хатти-ҳаракатлар умумлашмасидир. Соғломлаштириш кишиларнинг жисмоний, руҳий-маънавий, ижтимоий ва диний ҳаёт тарзинининг саломатлигини химоялаш ва мустаҳкамлаш, улардаги турли иллатларнинг келиб чиқишини олдини олиш, бундан ташқари турли носоғлом ташқи таъсирларга нисбатан курашувчанлик қобилиятини ривожлантирувчи комплекс чора тадбирлар йифиндисидир. Ушбу маколада шахс эстетик соғломлаштириш имкониятларининг ахамияти очиб берилган.

**КАЛИТ СҮЗЛАР:** Эстетика, соғломлаштириш, гўзаллик, миллий ўйинлар, соғлом шахс, эстетик муносатни шакллантириш, соғлом ҳаёт, спорт-соғлом ҳаёт манбаи.

Табиатдаги гўзаллик - тириклиқ, нотирик олам, ўсимликлар ва ҳайвонот олами ўртасида шаклланган ўзаро уйғунлик, мақсадга мувофиқлик каби хусусиятлар билан белгиланадиган мукаммалликда намоён бўлади. “Бизни қуршаб турган жонли ва жонсиз табиат, табиий мухитнинг ўзини шу нуқтаи назардан олиб қарайдиган бўлсак, улар учун умумий мукаммаллик қонунияти хосдир. Табиат барча тирик ва нотирик турларнинг узаро уйғун, мутаносиблигидан ташкил топган мутлақ мукаммаллигидир”[1]. Табиатда хеч бир нарса ортиқча эмас, яъни бири иккинчисиз яшай олмайди. Мазкур қонуниятни англаш етмаслиқ, уни қабул қиласлиқ, XX аср охирида мавжуд цивилизасияга хавф солувчи умумбашарий экологик муаммоларни келтириб чиқарди. Шу сабабдан соғломлаштиришнинг муҳим жиҳатларидан бири – табиатга нисбатан соғлом муносабатни тарбиялашдир. Табиатга нисбатан кишиларнинг оқилона, эҳтиёткорона муносабатини тарбиялаш, табиат инъомларини тежаб ишлатиш, атроф мухитни ифлослантирмаслиқ, чиқиндиларни ташламаслиқ кўникмаларини тарбиялаш, соғлом тарбиянинг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади. Зардўштийликдан мерос қолган тупроқ, олов, ҳаво ва сувни муқаддас деб билиб уларни ифлослантирмаслиknи қатъий назорат қилиш, табиатга нисбатан эстетик муносабатни тарбиялаш, ижтимоий соғломлаштиришнинг энг муҳим қисми ҳисобланади. Зеро, инсон ана шу табиатнинг ажралмас қисмидир. Табиатга нисбатан ҳар қандай хунук муносабат инсоннинг ўзига ана шундай хунук, ноэстетик жавоб тарзида қайтади.

Гўзалликнинг яна бир намоён бўлиш шакли бу – жамият гўзаллиги. “Жамият гўзаллиги унинг тараққиёти йўналиши, иқтисодий ва маънавий соҳаларининг ўзаро уйғунликда ривожланишида намоён бўлади. Таракқиётнинг йўналиши, ҳар бир шахс, фуқаронинг камолотига қаратилган жамиятнигина мукаммаллик даражасига кўтарила олади”[2]. Жамият, табиат ва инсон ўртасидаги шундай уйғунлик ва мукаммалликни ифодалайдики, бунда унинг маънавий ҳаёти ва иқтисодий ривожланиш даражаси билан белгиланади. Шу ўринда файласуф олим Т.Махмудовнинг қўйидаги фикрларини келтиришимиз мумкин: “Маънавият шахс ва миллатнинг “ақлли қалби”ни ифода этадиган, тарих тақозасига биноан унинг турли томонлари намоён бўладиган, табиат, жамият ва инсоннинг инсонийлашув даражасини билдирадиган руҳий идрок, зийрак қалб оламидир”[3]. Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар, қурилаётган демократик, фуқаролик жамияти ўзининг мақсад ва моҳиятига кўра ана шундай мукаммал, гўзал ижтимоий тузум шакли ҳисобланади. Жамиятни соғломлаштиришда жамият аъзолари ўртасида асрлар давомида шаклланиб, ривожланиб, тарих тўсиқларидан эсон омон ўтиб келаётган миллий анъаналаримиз, меҳр шавқат, инсонпарварлик, саҳиълик, меҳрибонлик, камтарлик, мардлик, ҳалоллик, табиатга нисбатан эъзоз ва меҳр муҳаббатга асосланадиган муносабатларни тарбияласак, гўзал ва бетакрор жамият қуришимиз мумкин.

Соғломлаштириш фаолиятининг пировард мақсади ва асосий соҳаси бу шахсга йўналтирилган соғломлаштириш фаолиятидир. Соғлом шахс – гўзал шахсадир. Шахснинг жисмоний, руҳий-маънавий, мағкуравий соғломлиги, унинг тизим ташкил этувчи турли элементлари ўртасидаги уйғунлик, ундаги гўзалликнинг ифодасидир. “Шахс гўзаллиги



кенг маънода унинг маънавий-рухий дунёсининг фаолияти, ҳатти-харакатларида намоён бўлишлиги билан белгиланади. Шунга кўра конкрет шахс гўзаллиги унинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги, хулқ атвори, ахлоқи ва кундалик амалий фаолияти билан чамбарчас боғлиқ жиҳат ҳисобланади” [4]. Инсон ички маънавий-рухий дунёсининг унинг ташки дунёси ҳатти- харакати, хусни, чиройи билан уйғунылиги ва бунда биринчисини белгиловчи мавқеига ва устиворликка эга эканлиги, кишининг хусни, чиройи қанчалик жозибали бўлмасин, агар ички дунёси маънавиятдан озиқланмаган бўлса, у гўзаллик фазилатидан маҳрум ҳисобланади ва шунчаки чирой бўлиб қолади.

Хозирги кунда соғлом турмуш тарзини кечиришга, кун тартибини тузишга интилувчи кишилар кун сайин кўпаймоқда. Улар, ўзларини ва ён-атрофидагиларни, дўстларини, оила аъзоларини спорт билан шуғулланиш, ерталаб ва кечки пайтда пиёда юриш, сайд қилиш, гимнастика машғулоти билан бир қаторда қизиқарли ҳаракатли ўйинларни ўйнаш, кундалик маълум тартибга амал қилган ҳолда машқларни бажаришга даъват етадилар. Ижтимоий-маънавий турмуш шароитида, соғлом ҳаёт тарзини кечиришда ҳаракатли ўйинлардан мақсадли фойдаланиш, бунда мавжуд бўлган ўйин тўпламларини йиғиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бундан ташқари, бугунги кунда яна актуаллашиб бораётган, соғлом ҳаёт тарзининг ажralmas қисми бўлган китоб ўқиш, бунинг учун севимли ва қизиқарли китобларни йиғиш лозимдир. Ҳар бир оила барча аъзоларининг биргаликда спорт билан шуғулланишлари, турли миллий ҳаракатли ўйинларни биргаликда ўйнашлари аҳиллик, меҳрибонлик, бир-бирини қадрлаш, бир-бирини ҳурмат қилиш каби ижобий фазилатларни, эстетик туйғуларни мустаҳкамлаш билан бир қаторда, уларнинг жисмонан соғлом, бақувват бўлишлари, ҳатто чиниқишлиарини таъминлайди.

Соғломлаштириш эстетик ҳодиса сифатида спортнинг кўргина турларида намоён бўлади. Спорт – гўзаллик ва саломатлик манбаидир. Баъзи спорт турлари ўзининг гўзаллиги, нағислиги, улуғворлиги билан санъат даражасига кўтарила олган. Масалан, бадий гимнастика, фигурали учиш, спорт ракслари, спорт гимнастикаси, синхрон сузиш ва бошқалар. Бу спорт турлари нафақат жисмоний саломатлик манбаи, балки бадий эстетик озуқа берувчи манбаа сифатида ҳам муҳим аҳамият касб етиб келмоқда. Шу сабабдан гўзаллик ва саломатлик манбаи бўлган ушбу спорт турларини мамлакатимизда кенг тарғиб қилиш, болаларни ушбу спорт турларига жалб қилиш ва оммалаштириш жамиятимизнинг соғломлаштириш ва эстетиклаштиришда нихоятда самарали механизмга айланади деб ҳисоблаймиз.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, соғломлаштириш – жамият ва шахснинг турмуш тарзида тартиб, ташки таъсирларга нисбатан ҳимояланиш ва курашиш қобилияти, кишиларнинг ва бутун жамиятнинг саломатлигини, соғломлигини барқарорлаштиришга қаратилган комплекс чора тадбирлар йифиндиси сифатида жамиятнинг маънавийлик даражасини кўтариши, кишиларнинг гўзаллик, нафосатдан юксак даражада лаззатланиш, ҳайратланиш туйғуларини шакллантириш билан эстетик аҳамият касб этади ва эстетик ҳодиса сифатида баҳоланади

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. А. Баумгартен. Эстетика. Перевод М.М.Позднев, В.Л.Иванов. Москва: EINAI, 2012.
2. Карл Юнг. Человек и его символы. Москва. Луч, 2017. Б.152
3. Г.Скирбекк. Фалсафа тарихи. Тошкент: 2000. Б.103
4. “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони Тошкент 2018.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 2-КИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000